XALQ DEPUTATLARI G‘OZG‘ON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024 - yil 22 - fevral VI-55-14-5-210-K/24 G‘ozg‘on shahar hokimligi

Shahar mahalliy budjetining 2024-yil 1-yanvar holatiga yuzaga kelgan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘lar ajratish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27 va 126-moddalariga muvofiq shahar mahalliy budjetining 2024-yil 1-yanvar holatiga yuzaga kelgan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan, xalq deputatlari shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limining shahar mahalliy budjetining 2024-yil 1-yanvar holatiga yuzaga kelgan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risidagi taklifi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shahar mahalliy budjetining 2024-yil 1-yanvar holatiga yuzaga kelgan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan ajratiladigan mablag`lar **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Budjet tashkilotlari va muassasalari hamda budjetdan mablag‘ oluvchilar ajratilgan mablag‘dan maqsadli va samarali foydalanilishini ta’minlasin.

4. Shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S.Boboyev), shahar G‘aznachilik bo‘linmasi (X.Muhammadjonov)larga:

mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘larni amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari hamda xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish

masalalari bo‘yicha (D.Egamova) doimiy komissiya zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **A.Bazarov**

Xalq deputatlari G‘ozg‘on shahar
Kengashining
2024-yil 22-fevraldagi
VI-55-14-5-210-K/24-son qaroriga
1-ilova

G‘ozg‘on shahar mahalliy budjetining 2024-yil 1-yanvar holatiga yuzaga kelgan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘lar

T/R	Tashkilot va muassasa nomi	Maqsadi	Ajratilgan mablag‘ (mln.so‘mda)
			1-chorak DROBQ
1.	G‘ozg‘on shahar hokimligiga	Moddiy texnika bazasini mustahkamlash uchun	90
		Shahar hokimligi avtomashinalarini ta’mirlash uchun	35
		Kengash Kotibyati xodimlarini rag‘batlantirish uchun (ajratma bilan birga)	25
		Nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga	2,8
		Ochilov Suponboyga (yanvar, fevral va mart oylari uchun) moddiy yordam	5,1
		Internet xizmati uchun	15
		Konselariya mahsulotlari xarid qilish uchun	7
		Hokimlik haydovchisiga ustama to‘lash uchun (ajratma bilan birga)	7,5
		“Ayollar daftari” jamg‘armasiga	7
		O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasi majlisining №9-sonli bayonining 3-bandi hamda davlat komissiya majlisining 2021-yil 15-iyundagi №11-son bayoni 4-bandiga asosan Madaniyat institutida ta’lim oladigan talablarga kontrakt summasini to‘lab berish uchun	40
		Hokimlik web saytining domen va xost to‘lovlari uchun	16,5
		“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga”	186,5
2.	Obodonlashtirish boshqarmasiga	Ko‘chat sotib olish uchun	25
	Jami		**462,4**